SUG‘URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA RISKGA ASOSLANGAN KAPITALNING STRATEGIK O‘RNI

To‘g‘izova Malika Soxib qizi
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
“Iqtisodiyot va turizm” kafedrasi assistenti
malikatugizova47@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda riskga asoslangan kapitalning (RBC) strategik o‘rni tadqiq etilgan. Tadqiqot metodologiyasi Monte-Karlo simulyatsiyasi, Value-at-Risk (VaR) hamda Tail Value-at-Risk (TVaR) ehtimollik modellariga asoslangan. O‘tkazilgan iqtisodiy-matematik modellashtirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy VaR usulidan farqli o‘laroq, kogerent TVaR modeli ekstremal (katastrofik) xavflarni ishonchli qoplaydi va kompaniyaning to‘lovga layoqatsizlik riskini minimallashtiradi. Shuningdek, Eyler prinsipi asosida kapitalni biznes segmentlari bo‘yicha taqsimlash orqali diversifikatsiya effektiga erishish va iqtisodiy qo‘shilgan qiymatni (EVA) oshirish mexanizmlari isbotlangan. Xulosa o‘rnida, O‘zbekiston sug‘urta bozorida statik regulyativ talablardan voz kechish, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP) nazoratini Solvency II tamoyillari hamda ilg‘or InsurTech yechimlari negizida riskka sezgir arxitekturaga o‘tkazish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta bozori, riskga asoslangan kapital (RBC), TVaR modeli, diversifikatsiya effekti, to‘lovga qobiliyatlilik (Solvency II), moliyaviy barqarorlik

Kirish. Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida moliya bozorlaridagi yuqori tebranishlar, makroiqtisodiy beqarorlik, shuningdek, kutilmagan tabiiy va texnogen ofatlar moliya institutlari, xususan, sug‘urta kompaniyalari oldiga o‘z moliyaviy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha mutlaqo yangi va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Sug‘urta faoliyati o‘zining iqtisodiy tabiatiga ko‘ra ehtimollik va noaniqlikka tayanganligi hamda “teskari ishlab chiqarish sikli”ga asoslanganligi sababli, bu sohada to‘lovga qobiliyatlilikni (solvency) saqlab qolish tizimli ahamiyat kasb etadi. An’anaviy yondashuvlarda sug‘urta kompaniyalarining xususiy kapitali asosan operatsion faoliyatni moliyalashtiruvchi va litsenziya talablarini bajaruvchi statik manba sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu qarash to‘liq transformatsiyaga uchradi. Hozirgi davrda kapital kutilmagan va modellashtirish qiyin bo‘lgan xavflarni o‘ziga yutuvchi — “moliyaviy xavfsizlik yostiqchasi” vazifasini bajaruvchi dinamik vosita sifatida baholanmoqda.

Ushbu transformatsiya jarayoni xalqaro amaliyotda Riskga asoslangan kapital (Risk-Based Capital — RBC) konsepsiyasining shakllanishiga va uning regulyativ standartlar (masalan, Yevropadagi Solvency II yoki AQShdagi NAIC RBC tizimlari) darajasiga ko‘tarilishiga olib keldi. Mazkur yondashuvning tayanch mohiyati shundan iboratki, kompaniya ixtiyorida ushlab turilishi shart bo‘lgan minimal va maqsadli kapital hajmi barcha andozaviy me’yorlardan voz kechgan

holda, sug‘urtalovchi bevosita qabul qilgan hamda uning biznes modeliga xos bo‘lgan risklar (sug‘urta, investitsiya, kredit va operatsion risklar) profiliga qat’iy mutanosib bo‘lishini ta’minlashdir. Bu shuni anglatadiki, bir xil hajmdagi sug‘urta mukofotlarini yig‘uvchi ikkita kompaniya, agar ularning investitsiya portfeli yoki qayta sug‘urta himoyasi turlicha bo‘lsa, mutlaqo turli hajmdagi riskga asoslangan kapitalga ega bo‘lishi talab etiladi.

Shu bilan birga, RBC konsepsiyasi shunchaki regulyator tomonidan qo‘yiladigan nazorat vositasi emas, balki kompaniyaning ichki strategik menejmenti va qiymatini oshirish instumenti hisoblanadi. Sug‘urta kompaniyasi menejmenti doimiy ravishda murakkab dilemma qarshisida turadi: kapitalning yetishmasligi kompaniyaning kutilmagan zararlar yuz berganda majburiyatlarini bajara olmay, bankrotlikka uchrashiga olib kelsa; kapitalning regulyativ va iqtisodiy ehtiyojlardan ortiqcha darajada ushlab turilishi resurslarning iqtisodiy oborotdan chiqishiga, aksiyadorlar uchun kapital rentabelligining (ROE) pasayishiga va pirovardida raqobatbardoshlikning yo‘qotilishiga sabab bo‘ladi. O‘zbekiston sug'urta bozorida ham regulyator tomonidan kapital yetarliligiga qo‘yilayotgan talablarning qat’iylashtirilib borilayotgani ushbu mavzuning milliy iqtisodiyot uchun ham naqadar muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — sug‘urta kompaniyalarida riskga asoslangan kapitalning iqtisodiy tabiatini yoritish, uning hajmini ehtimollik modellari (VaR, TVaR) yordamida shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish hamda kapital va turli toifadagi risklar o‘rtasidagi optimal muvozanatni ta’minlashning amaliy-strategik mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Sug‘urta kompaniyalarida riskga asoslangan kapital (RBC) tushunchasi va ularni matematik modellashtirish masalalari xalqaro moliya va aktuar fanining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ilmiy adabiyotlarda kapital yetarliligi muammosi dastlab statik normativlar doirasida o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik riskka sezgir (risk-sensitive) bo‘lgan dinamik modellarga ko‘chdi.

Solvency II va risk modullari arxitekturasi: J. Cummins va R. Phillips kabi olimlar riskga asoslangan kapitalni moliya bozoridagi nomukammalliklar sharoitida kompaniyaning iqtisodiy qiymatini saqlab qoluvchi asosiy mexanizm sifatida e’tirof etishgan. M. Eling, H. Schmeiser va A. Sandström kabi tadqiqotchilar Solvency II ning birinchi ustuni (Pillar 1) doirasidagi Sug‘urta kapitali talabi (SCR) formulasini tahlil qildilar. Sandström (2006) o‘z tadqiqotlarida kompaniya qabul qiladigan barcha xavflarni alohida modullarga (anderrayting, bozor, kredit va operatsion) ajratish hamda ularni korrelyatsiya matritsalari yordamida yagona agregat riskka birlashtirish usulini eng mukammal yondashuv deb ataydi.

VaR modeli va uning cheklovlari: P. Jorion (1997) VaR modelini moliya institutlari uchun riskni o‘lchashning tayanch o‘lchovi deb ta’riflagan. Biroq, C. Acerbi va P. Tasche (2002) ta’kidlashicha, VaR modeli sug‘urta risklari, xususan, kam uchraydigan, ammo o‘ta katta zarar keltiruvchi hodisalar oldida ojizdir. Xalqaro aktuar ilm-fanida eng katta inqilobni P. Artzner, F. Delbaen, J. Eber va D. Heath (1999) qildilar. Ular “kogerent risk o‘lchovlari” aksiomalarini ishlab chiqib, VaR modeli sub-additivlik xossasiga ega emasligini isbotlab berdilar. Ya’ni, VaR

modelida ikkita alohida riskli portfelni birlashtirish ularning umumiy riskini kamaytirmasligi diversifikatsiya tamoyiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ziddir.

TVaR – kogerent va takomillashgan model sifatida: R. Rockafellar va S. Uryasev (2000) o‘z asarlarida Tail Value-at-Risk (TVaR) modelining afzalliklarini isbotlab berdilar. Olimlarning xulosasiga ko‘ra, TVaR nafaqat VaR kabi chegaraviy qiymatni belgilaydi, balki ushbu “eng yomon stsenariylar” zonasiga tushib qolganda o‘rtacha yo‘qotish qancha bo‘lishini e’tiborga oladi. MDH va mahalliy olimlar asosan sug‘urta zaxiralarini joylashtirish va statik to‘lovga qobiliyatlilik marjasiga urg‘u qaratishgan bo‘lsa-da, innovatsion kapital modellarini (RBC) rivojlanayotgan bozorlarga joriy qilish bo‘yicha ilmiy bo‘shliqlar saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Sug‘urta faoliyatidagi yo‘qotishlar ehtimollik xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli, tadqiqot metodologiyasi risklarni miqdoriy o‘lchash, zararlar taqsimotini shakllantirish va umumiy kapital talabini hisoblash bo‘yicha kompleks matematik yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

Muhokama. Olingan natijalar O‘zbekiston sug‘urta amaliyotiga tatbiq etishda o‘ziga xos tahlilni talab etadi. O‘zbekiston sug‘urta bozorida NAPP tomonidan kapitalga bo‘lgan talablar oshirilib borilayotgan bo‘lsada, yondashuv asosan statik “Solvency I” tamoyillariga asoslangan. Milliy sug‘urta bozori regulyatsiyasi kelgusida riskka sezgir (risk-sensitive) bo‘lgan RBC modellariga, shu jumladan TVaR o‘lchoviga bosqichma-bosqich o‘tishi obektiv zaruratdir. TVaR hisob-kitoblari toza tarixiy statistikaga qat’iy tayanadi. O‘zbekistondagi eng jiddiy muammolardan biri - sifatli aktuar ma’lumotlar bazasining yetishmasligidir. Xalqaro modellarni to‘g‘ri qo‘llash uchun kompaniyalar o‘z ichki InsurTech infratuzilmasini va Big Data arxitekturasini yaratishlari talab etiladi. Mahalliy sug‘urta kompaniyalari investitsiya portfelining qariyb 70-75% qismi tijorat banklari depozitlariga to‘g‘ri keladi. TVaR tahlili shuni ko‘rsatadiki, aktivlarning bunday kuchli konsentratsiyasi makroiqtisodiy xavflar yuzaga kelganda umumiy kapitalga talabni keskin oshiradi. RBC modeliga o‘tish sug‘urtachilarni o‘z zaxiralarini diversifikatsiya qilishga majbur qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari sug‘urta kompaniyalarida riskga asoslangan kapital (RBC) konsepsiyasining strategik ahamiyatini to‘liq tasdiqlaydi. TVaR modeli va Eyler tamoyili ekstremal xavflarni qoplash, diversifikatsiya effekti va EVA ko‘rsatkichini oshirish imkonini beradi. O‘zbekiston sug‘urta bozorining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, quyidagi amaliy takliflar shakllantirildi:

1. Regulyator (NAPP) uchun: Ustav kapitalining qat’iy (flat) minimal miqdorlaridan voz kechib, Solvency II standartlariga mos keluvchi dinamik RBC arxitekturasiga bosqichma-bosqich o‘tish zarur.
2. ALM siyosatini diversifikatsiya qilish: Sug‘urta zaxiralarini shakllantirishda bank depozitlariga bo‘lgan qaramlikni kamaytirib, portfelni davlat qimmatli qog‘ozlari va korporativ obligatsiyalar hisobiga diversifikatsiya qilish lozim.
3. InsurTech infratuzilmasini shakllantirish: Kompaniyalar o‘z axborot tizimlarini raqamlashtirishi, markazlashgan ma’lumotlar bazalarini (Data Warehouse) yaratishga investitsiyalar kiritishi shart.

4. Aktuar salohiyatni kuchaytirish: Murakkab stoxastik modellarni tatbiq etish uchun xalqaro malakaga ega aktuar-tahlilchilar rolini oshirish hamda ta'lim integratsiyasini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Artzner, P., Delbaen, F., Eber, J. M., & Heath, D. (1999). Coherent measures of risk. *Mathematical Finance, 9*(3), 203–228.
2. Cummins, J. D., & Phillips, R. D. (2005). Estimating the cost of equity capital for property-liability insurers. *Journal of Risk and Insurance, 72*(3), 441–478.
3. Jorion, P. (1997). *Value at risk: The new benchmark for controlling market risk*. McGraw-Hill.
4. Rockafellar, R. T., & Uryasev, S. (2000). Optimization of conditional value-at-risk. *Journal of Risk, 2*(3), 21–42.
5. Sandström, A. (2006). *Solvency: Models, assessment and regulation*. Chapman and Hall/CRC.
6. Шахов, В. В. (2003). *Страхование: Учебник для вузов*. ЮНИТИ-ДАНА.
7. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP). (2024). *O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorining asosiy ko‘rsatkichlari va moliyaviy barqarorlik sharhi*. https://napp.uz/

CREDIT RISK AND INTERNAL AUDIT IN REDUCING NON-PERFORMING LOANS IN UZBEKISTAN

G‘aybullayev Sarvar O‘ktam o‘g‘li
Senior Lecturer, Department of Economics and Tourism, Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Kuvondikov Sarvar Soibnazar o‘g‘li
Student of the Economics program, Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan
kuvond1kov1511@gmail.com

Annotation: This paper examines mechanisms for reducing non-performing loans (NPLs) in the commercial banks of Uzbekistan through credit risk management and a more effective internal audit. Using Central Bank and Accounts Chamber data for 2024–2026, the study shows that the NPL ratio fell from 4.0% (1 January 2025) to 2.99% (end of 2025) but rose again to 3.8% by 1 October 2026, with state-owned banks now holding the higher ratio. A seven-stage model that embeds internal audit in every stage of the credit process is proposed, and each proposed mechanism is linked to a measurable performance indicator.

Keywords: commercial banks, credit risk, internal audit, non-performing loans, NPL, loan portfolio, risk management, internal control, digital monitoring

Commercial banks play a key role in financing the economy. Lending is their main source of income and, at the same time, the source of credit risk: the possibility